



TRANSPORT VA AVTOMOBILSOZLIK SOHALARIDA
KASBIY MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

METROPOLITEN QURILMALARIGA XIZMAT KO'RSATUVCHILAR VA TA'MIRLOVCHILAR



“Metropoliten qurilmalariga xizmat ko’rsatuvchilar va ta’mirlovchilar” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrug’i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Transport sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Metropoliten qurilmalariga xizmat ko'rsatuvchilar va ta'mirlovchilar

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0137



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Ushbu Kasbiy standart metropoliten qurilmalariga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha chilangar-elektrik, metropolitenning stansion va tunnel qurilmalariga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha chilangar-elektrik, temir yo'lda ta'mirlash bo'yicha ishchi kasblar uchun ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli masalalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

Bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

DACUM – korxonaning tajribali xodimlaridan iborat ekspert guruhlarida tuzilgan guruh muhokamalarini o'tkazish usuli;

Informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

Iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

Kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

Kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

Kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

Ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

Mehnat funksiyasi — kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

Mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

Mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

Norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli.

Elektr jihozlari – elektr energiyasi yordamida ishlaydigan barcha qurilmalar va uskunalari (dvigatel, transformator, kabel, yoritish moslamalari va boshqalar).

Elektr tarmog'i – elektr energiyasini ishlab chiqarish manbasidan iste'molchigacha yetkazib beradigan kabellar, simlar va qurilmalar tizimi.

Transformator – elektr kuchlanishini oshirish yoki kamaytirish uchun xizmat qiladigan elektr qurilmasi.

Elektr dvigatel – elektr energiyasini mexanik harakatga aylantiradigan qurilma.

Elektr ta'minoti manbai – elektr energiyasini ishlab chiqarish yoki uzatish orqali iste'molchilarga yetkazib berishni ta'minlaydigan qurilmalar va tizimlar majmui.

Elektr taqsimlash qurilmasi – elektr energiyasini qabul qilish, taqsimlash va iste'molchilarga uzatish uchun mo'ljallangan apparatlar, shinalar, himoya va boshqaruv qurilmalaridan iborat majmua.

Elektr zanjiri – elektr tokini uzatish uchun o'zaro ulangan elektr elementlari (manba, kabel, iste'molchi va boshqalar) majmui.

Elektr apparati – elektr zanjirini ulash, uzish, himoya qilish yoki boshqarish vazifalarini bajaradigan elektr qurilmasi.

Elektr o'lchov asboblari – elektr tokini, kuchlanishni, qarshilikni, quvvatni va boshqa elektr parametrlarini o'lchash uchun mo'ljallangan asboblarning majmui

Kabel liniyasi – elektr energiyasini uzatish uchun yer osti yoki yer ustida o'rnatilgan izolyatsiyalangan kabel tizimi.

Kontakt tarmog'i – elektr poyezdlarga tok yetkazib beruvchi simlar va osma konstruksiyalardan iborat tizim.

Yoritish tizimi – stansiya, tunnel va xizmat xonalarini yoritish uchun o'rnatilgan lampalar va elektr jihozlari majmuasi.

Signalizatsiya – poyezd harakatini boshqarish va xavfsizlikni ta'minlash uchun ishlatiladigan signal tizimi.

Avtomatika – qurilmalarning inson aralashuvisiz avtomatik tarzda ishlashini ta'minlovchi boshqaruv tizimi.

Ta'mirlash – nosoz yoki eskirgan qurilmalarni tiklash, sozlash yoki almashtirish jarayoni.

Texnik xizmat ko'rsatish – qurilmalarni doimiy ravishda tekshirish, tozalash va soz holda saqlash ishlari.

Nosozlik – qurilmaning normal ishlashiga to'sqinlik qiladigan texnik muammo yoki buzilish.

Izolyatsiya – elektr tokini o'tkazmaydigan material bilan sim yoki qurilmani himoyalash jarayoni.

Yerlatish(zazemleniye) – elektr qurilmasini xavfsizlik maqsadida yer bilan ulash tizimi.

Qisqa tutashuv – elektr zanjirida qarshilik juda kichik bo'lib, katta tok oqimi yuzaga keladigan holat.

Himoya avtomati – ortiqcha tok yoki qisqa tutashuv paytida elektr tarmog'ini avtomatik ravishda uzib qo'yadigan qurilma.

Tunnel qurilmalari – metropoliten tunnelida joylashgan ventilyatsiya, yoritish, kabel va boshqa texnik tizimlar.

Ventilyatsiya tizimi – tunnel va stansiyalarda havoni yangilash va aylantirish uchun xizmat qiladigan qurilmalar majmuasi.

Stansiya qurilmalari – metropoliten stansiyalarida o'rnatilgan elektr, signalizatsiya, yoritish va boshqa texnik uskunalar.

Diagnostika – qurilmaning texnik holatini aniqlash uchun o'tkaziladigan tekshiruv jarayoni.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabr "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgust 275-son "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori (IFUT-2);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 28-sentabrdagi 504-son qarori

Transport sohasi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda ilmiy va innovatsion faoliyat tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida bo'lib, qarorga muvofiq Transport sohasi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tashkil etilgan.

Transport sohasi kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tartibi to'g'risidagi Nizom

Nizom 504-son qarorga ilova sifatida tasdiqlangan bo'lib, unda kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tartibi, o'quv jarayonining tashkil etilishi va boshqa

masalalar belgilangan.

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

MMR – Milliy malaka ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori;

TTMM – tarmoq tarif-malaka ma'lumotnomasi;

ZT – Zaxira tizimi;

TXK – Texnik xizmat ko'rsatish;

RK – Rele kontrollari;

QT – Qisqa tutashuv;

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Metropolitan qurilmalariga xizmat ko'rsatuvchilar va ta'mirlovchilari	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	metropolitan tizimida ishlatiladigan elektr, mexanik va texnik qurilmalarning ishonchli, uzluksiz va xavfsiz ishlashini ta'minlash uchun xodimlarning kasbiy malakasi, bilimlari, ko'nikmalari va mehnat vazifalariga qo'yiladigan talablarni belgilashdir.	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	C seksiya: Ishlab chiqaradigan sanoat 33. Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish va texnik xizmat ko'rsatish 33.1 Tayyor metall buyumlar, mashina va uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish 33.12 Mashina va uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish 33.12.0 Mashina va uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Ushbu standart metropolitan tizimidagi elektr, mexanik va boshqa texnik qurilmalarni ishlatish, ularga texnik xizmat ko'rsatish hamda ta'mirlash bilan shug'ullanuvchi xodimlarning kasbiy faoliyatini tartibga soluvchi hujjatdir. Ushbu standart xodimlarning asosiy mehnat vazifalari, zarur bilim va ko'nikmalari, malaka darajalari hamda ish jarayonida bajarilishi lozim bo'lgan texnika xavfsizligi qoidalarini belgilaydi. Shuningdek, unda metropolitan qurilmalarini tekshirish, nosozliklarni aniqlash, profilaktik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini bajarish tartibi ham yoritiladi. Kasbiy standart metropolitan transportining uzluksiz, ishonchli va xavfsiz ishlashini ta'minlash uchun xodimlarning malakasini oshirish va ularning mehnat faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		74129051 Metropolitanning stansion va tunnel qurilmalariga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha chilangar-elektrik (Ta'mirlovchi chilangar)	3
		71190036 Temir yo'lda ta'mirlash bo'yicha ishchi (chilangar) (Zumpf agregati chilangari)	3
		74129050 Metropolitan qurilmalariga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha chilangar-elektrik (Ta'mirlash bo'yicha chilangar elektrik)	4

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	74129051 Metropoliten ning stansion va tunnel qurilmalariga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha chilangar-elektrik	A1.3	Metropolitenning kirish-chiqish "M" tipidagi eshiklariga texnik xizmat ko'rsatish, ularni ta'mirlash, sozlash va uzluksiz ishlashini ta'minlash.	A1.01.3	"M" tipidagi eshiklardagi prujina, qulflar va boshqa mexanik qismlarni muntazam tekshirish, aniqlangan nosozliklarni bartaraf etish.
				A1.02.3	Eshik mexanizmlarini moylash, ehtiyot qismlarni almashtirish hamda ularning to'g'ri ishlashini ta'minlash.
		A2.3	Eshiklar holatini muntazam nazorat qilish orqali yo'lovchilar xavfsizligini ta'minlash va nosozliklarning oldini olish.	A2.01.3	Eskirgan, yemirilgan yoki ishdan chiqishi mumkin bo'lgan detallarni aniqlash va ularni almashtirish uchun zarur ehtiyot qismlarga buyurtma berish.
				A2.02.3	Bolt, gayka va boshqa mahkamlovchi elementlarning sozligini tekshirish, ularni mustahkamlash va belgilangan tartibda texnik xizmat ko'rsatish.
2	71190036 Temir yo'lda ta'mirlash bo'yicha ishchi (chilangar)	B1.3	Zumpf agregati va drenaj nasos stansiyasi uskunalari ishlatish hamda ularga texnik xizmat ko'rsatish.	B1.01.3	Zumpf agregati uskunalari ta'mirlash hamda uning texnik holatini nazorat qilish.
				B1.02.3	Agregatni transport holatidan ishchi holatga o'tkazish va ishlash uchun quvurlar sxemasini tayyorlash.
		B2.3	Tunnelda yig'ilgan loyqa pulpasini chiqarib olish va uni sisternalarga uzatish jarayonini boshqarish.	B2.01.3	Tunnel yig'uvchilaridan loyqa pulpasini chiqarib olish jarayonida uning sisternaga uzatilishini tartibga solish.
				B2.02.3	Ish tugagandan so'ng agregatni o'chirish, transport holatiga keltirish va barcha qurilmalarni harakatlanuvchi tarkib gabaritlari chegarasiga joylashtirish.

3	74129050 Metropoliten qurilmalariga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha chilangar-elektrik	D1.4	Metropoliten elektromexanik uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash ishlarini bajarish.	D1.01.4	Qo'l, elektromexanik va elektro-gidravlik yuritmalar bilan jihozlangan metropoliten uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash.
				D1.02.4	Elektromexanik uskunalar tugunlarini qismlarga ajratish, ta'mirlash va qayta yig'ish ishlarini bajarish.
		D2.4	Uskunalar, elektr qurilmalari va boshqaruv tizimlarining texnik holatini tekshirish hamda sinovdan o'tkazishda ishtirok etish.	D2.01.4	Elektr ishga tushirish apparaturalari, kichik quvvatli elektr dvigatellari va ularning ayrim detallarini ta'mirlash hamda tekshirish.
				D2.02.4	Izolyatsiya va yerga ulash qarshiligini o'lchash, kabellardagi shikastlanishlarni aniqlash va bartaraf etish.
		D3.4	Elektr ta'minoti, kabellar va yordamchi qurilmalarining ishlashini nazorat qilish hamda yuzaga kelgan nosozliklarni bartaraf etish.	D3.01.4	Nasoslar, ventilyatorlar va boshqa yordamchi uskunalariga xizmat ko'rsatish hamda ularni sinovdan o'tkazishda ishtirok etish.
				D3.02.4	Quvvat manbalari bloklarini tekshirish, montaj belgilarining va prinsipial elektr sxemalarning mosligini nazorat qilish hamda aniqlangan nosozliklarni bartaraf etish.

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Metropolitenning stansion va tunnel qurilmalariga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha chilangar-elektrik	
Mashg'ulot nomining kodi:	74129	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	1 yil	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Maxsus ruxsatlar: Ishga 18 yoshga to'lganlar qabul qilinadi. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda majburiy dastlabki (ishga kirishda) va davriy tibbiy ko'rikdan (ko'rikdan), shuningdek, navbatdan tashqari tibbiy ko'rikdan (ko'rikdan) o'tish. Ishchi kasbi sertifikat Ishga munosabat va xulq-atvor: -rahbarlariga o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish; -o'z bilimi, tajribasi va vakolati doirasida qarorlar qabul qilish; -belgilangan vazifalarni ish vaqtdan unumli va oqilona foydalangan holda bajarish; -mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, atrof-muhitni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, yong'in va elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qilish; -o'z tajribasini hamkasblari bilan bo'lishish; -jamo'a bilan inoq ishlash; o'z vazifalariga bog'liq yangilik va innovatsiyalarni kuzatib borish, o'zlashtirish va joriy qilish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	3-daraja uchun o'rta maxsus ta'lim, oliy ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	3-daraja uchun o'rta maxsus ta'lim, oliy ta'lim	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	Mavjud emas	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	3-5 razryadli Metropolitenning stansion va tunnel qurilmalariga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha chilangar-elektrik	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	Ta'mirlovchi chilangar

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.3- Metropolitenning kirish-chiqish “M” tipidagi eshiklariga texnik xizmat ko’rsatish, ularni ta’mirlash, sozlash va uzluksiz ishlashini ta’minlash.	A1.01.3 - “M” tipidagi eshiklardagi prujina, qulflar va boshqa mexanik qismlarni muntazam tekshirish, aniqlangan nosozliklarni bartaraf etish.	O’qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1.“M” tipidagi eshiklarning prujina, qulflar va mexanik qismlarini reja asosida ko’zdan kechirish va ishlash holatini tekshirish.
		2.Aniqlangan nosozliklarni bartaraf etish uchun sozlash, ta’mirlash va tiklash ishlarini amalga oshirish.
		3.Zarur hollarda mexanik qismlarni demontaj qilish, ta’mirlash yoki yangisiga almashtirib qayta o’rnatish.
		Ko’nikmalar:
		Mexanik tizimlardagi nosozliklarni aniqlash va ularni tezkor bartaraf etish ko’nikmasi.
		Ta’mirlash va sozlash ishlarida asbob-uskunalardan samarali va xavfsiz foydalanish.
		Prujina, qulflar va boshqa mexanik qismlarni to’g’ri o’rnatish va sozlash ko’nikmasi.
		Bilimlar:
		“M” tipidagi eshiklarning tuzilishi, ishlash prinsipi va texnik xususiyatlari.
		Mexanik qismlar (prujina, qulflar va boshqalar)ning turlari va ularning ishlash mexanizmlari.
		Texnik xizmat ko’rsatish, ta’mirlash jarayonlari hamda mehnat xavfsizligi qoidalari.
	A1.02.3- Eshik mexanizmlarini moylash, ehtiyot qismlarni almashtirish hamda ularning to’g’ri ishlashini ta’minlash.	Mehnat harakatlari:
		1. Eshik mexanizmlarining ishqalanadigan qismlarini aniqlab, ularga belgilangan tartibda moylash ishlarini amalga oshirish.
		2. Nosoz yoki eskirgan ehtiyot qismlarni aniqlab, ularni demontaj qilish va yangisiga almashtirish.
		3. Moylash va almashtirish ishlari yakunida mexanizmlarning ishlashini sinovdan o’tkazish va sozlash.
		Ko’nikmalar:
		Moylash materiallarini to’g’ri tanlash va qo’llash ko’nikmasi.
		Ehtiyot qismlarni almashtirishda texnik talablarga rioya qilish va aniqlik bilan ishlash.
		Mexanik tizimlarning ishlashini tekshirish va sozlash bo’yicha amaliy ko’nikmalar.
		Bilimlar:
		Moylash materiallarining turlari, xususiyatlari va qo’llash usullari.
		Eshik mexanizmlarining tuzilishi va ishlash prinsiplari.
		Texnik xizmat ko’rsatish, ta’mirlash va xavfsizlik texnikasi qoidalari.
	Mas’uliyat va mustaqillik:	1.“M” tipidagi eshiklarning uzluksiz, ishonchli va xavfsiz ishlashini ta’minlash uchun shaxsiy javobgarlik.

A2.3 - Eshiklar holatini muntazam nazorat qilish orqali yo'lovchilar xavfsizligini ta'minlash va nosozliklarning oldini olish.		2.Moylash va ehtiyot qismlarni almashtirish ishlarini belgilangan texnik talablar asosida sifatli bajarish uchun javobgarlik.
		3.Nosozliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish usullarini tanlashda amaliy mustaqillikka ega bo'lish.
		4.Zarur ehtiyot qismlarni aniqlash va ularni almashtirish bo'yicha takliflar kiritishda mustaqil faoliyat yuritish.
	A2.01.3 - Eskirgan, yemirilgan yoki ishdan chiqishi mumkin bo'lgan detallarni aniqlash va ularni almashtirish uchun zarur ehtiyot qismlarga buyurtma berish.	Mehnat harakatlari:
		1.“M” tipidagi eshiklarning mexanik qismlarini ko'zdan kechirib, eskirish yoki shikastlanish belgilarini aniqlash.
		2.Aniqlangan nosoz yoki yaroqsiz detallarni texnik jihatdan baholash va ularni almashtirish zaruratini belgilash.
		3.Zarur ehtiyot qismlar uchun buyurtma berish hujjatlarini tayyorlash va tegishli xizmatlarga taqdim etish.
		Ko'nikmalar:
		Mexanik detallar holatini vizual va texnik usullar bilan aniqlash ko'nikmasi.
		Nosozliklarni tahlil qilish va ularning xavf darajasini baholash ko'nikmasi.
		Ehtiyot qismlarga buyurtma berish bo'yicha hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirish ko'nikmasi.
		Bilimlar:
		“M” tipidagi eshiklarning tuzilishi va ularning asosiy mexanik qismlari.
	A2.02.3- Bolt, gayka va boshqa mahkamlovchi elementlarning sozligini tekshirish, ularni mustahkamlash va belgilangan tartibda texnik xizmat ko'rsatish.	Eskirish, yemirilish va nosozliklarning belgilari hamda ularning texnik oqibatlarini.
		Ehtiyot qismlar bilan ishlash tartibi va texnik hujjatlashtirish qoidalari.
		Mehnat harakatlari:
		1. “M” tipidagi eshiklarning bolt, gayka va boshqa mahkamlovchi elementlarini vizual va texnik jihatdan tekshirish.
		2. Bo'shashgan yoki nosoz mahkamlovchi elementlarni aniqlab, ularni belgilangan me'yorlarga muvofiq mustahkamlash.
		3. Mahkamlovchi qismlarga texnik xizmat ko'rsatish jarayonida ularni tozalash, moylash va holatini qayta tekshirish.
		Ko'nikmalar:
		Mahkamlovchi elementlarning bo'shashishi va nosozligini tezda aniqlash ko'nikmasi.
		Asbob-uskunalaridan (kalit, moment o'lchagich va boshqalar) to'g'ri foydalanish ko'nikmasi.
		Texnik xizmat ko'rsatish jarayonida aniq va xavfsiz ishlash ko'nikmasi.
		Bilimlar:
		Bolt, gayka va boshqa mahkamlovchi elementlarning turlari va ularning vazifalari.

		“M” tipidagi eshiklarning mexanik tuzilishi va yuklama taqsimoti.
		Texnik xizmat ko’rsatish qoidalari va xavfsizlik texnikasi talablari.
	Mas’uliyat va mustaqillik:	1. Eshiklarning umumiy texnik holatini doimiy nazorat qilish orqali yo’lovchilar xavfsizligini ta’minlash uchun shaxsiy javobgarlik.
		2. Eskirgan, yemirilgan yoki nosoz detallarni o’z vaqtida aniqlash va ularni almashtirish jarayonini kechiktirmasdan tashkil etish uchun javobgarlik.
		3. Eshiklarning texnik holatini baholash va nosozliklarni aniqlash jarayonida mustaqil qaror qabul qilish.
Texnik va/yoki texnologik talab		Metropolitenning kirish-chiqish “M” tipidagi eshiklariga texnik xizmat ko’rsatish, ularni ta’minlash va sozlash jarayonida barcha mexanik qismlar va uzellar (prujina, qulflar, mahkamlovchi elementlar) texnik reglament va zavod talablari asosida soz holatda bo’lishi, eshiklarning ochilish-yopilish mexanizmi silliq va xavfsiz ishlashi, nosozliklar o’z vaqtida aniqlanib bartaraf etilishi hamda barcha texnik xizmat ko’rsatish ishlari belgilangan texnologik ketma-ketlik va ishlab chiqaruvchi ko’rsatmalariga qat’iy muvofiq bajarilishi talab etiladi. Eshiklar holatini muntazam nazorat qilish orqali yo’lovchilar xavfsizligini ta’minlash jarayonida barcha mexanik mahkamlovchi elementlar va harakatlanuvchi qismlar doimiy texnik ko’rikdan o’tkazilishi, eskirish yoki nosozlik belgilari aniqlanganda ularni o’z vaqtida almashtirish va bartaraf etish choralari ko’rilishi, nazorat ishlari belgilangan reja asosida amalga oshirilishi hamda aniqlangan kamchiliklar bo’yicha tezkor texnik choralar ko’rilishi va mehnat xavfsizligi qoidalariga qat’iy rioya etilishi shart hisoblanadi.

Kasbning nomi:	Temir yo'lda ta'mirlash bo'yicha ishchi (chilangar)	
Mashg'ulot nomining kodi:	71190	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Maxsus ruxsatlar: Ishga 18 yoshga to'lganlar qabul qilinadi. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda majburiy dastlabki (ishga kirishda) va davriy tibbiy ko'rikdan (ko'rikdan), shuningdek, navbatdan tashqari tibbiy ko'rikdan (ko'rikdan) o'tish. Ishchi kasbi sertifikat Ishga munosabat va xulq-atvor: -rahbarlariga o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish; -o'z bilimi, tajribasi va vakolati doirasida qarorlar qabul qilish; -belgilangan vazifalarni ish vaqtidan unumli va oqilona foydalangan holda bajarish; -mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, atrof-muhitni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, yong'in va elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qilish; -o'z tajribasini hamkasblari bilan bo'lishish; -jamoa bilan inoq ishlash; o'z vazifalariga bog'liq yangilik va innovatsiyalarni kuzatib borish, o'zlashtirish va joriy qilish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	3-daraja uchun o'rta maxsus ta'lim, oliy ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	3-daraja uchun o'rta maxsus ta'lim, oliy ta'lim	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	Mavjud emas	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	2-6 razryadli Metropoliten qurilmalariga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha chilangar-elektrik	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	Ta'mirlash bo'yicha chilangar elektrik

Mehnat funksiyalarining tasnifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.3-Zumpf agregati va drenaj nasos stansiyasi uskunalarini ishlatish hamda ularga texnik xizmat ko'rsatish.	B1.01.3- Zumpf agregati uskunalarini ta'mirlash hamda uning texnik holatini nazorat qilish.	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Zumpf agregati va drenaj nasos stansiyasi uskunalarini ishga tushirish va ularning texnik holatini muntazam tekshirish.
		2. Agregat uskunalarini ta'mirlash, qismlarga ajratish va yig'ish ishlarini belgilangan texnik jarayonlarga muvofiq bajarish.
		3. Ish jarayonida agregatning ishlash parametrlarini nazorat qilish va yuzaga kelgan nosozliklarni bartaraf etish.
		Ko'nikmalar:
		Zumpf agregati va drenaj nasos stansiyasi uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha amaliy ko'nikma.
		Ish jarayonida texnik jarayonlar va ish yo'riqnomalariga amal qilish ko'nikmasi.
		Aniqlangan nosozliklarni tezkor aniqlash va bartaraf etish hamda agregatni xavfsiz ishlash holatiga keltirish ko'nikmasi.
		Bilimlar:
		Zumpf agregati va drenaj nasos stansiyasi uskunalarining tuzilishi, ishlash prinsipi va texnik parametrlarini bilish.
		Uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash va sinovdan o'tkazish bo'yicha me'yoriy talablar.
		Mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi va yong'in xavfsizligi qoidalari hamda ularni amalda qo'llash tartibi.
	B1.02.3- Agregatni transport holatidan ishchi holatga o'tkazish va ishlash uchun quvurlar sxemasini tayyorlash.	Mehnat harakatlari:
		1. Zumpf agregatini transport holatidan ishchi holatga o'tkazish jarayonini belgilangan tartibda bajarish.
		2. Ishlash uchun quvurlar sxemasini tayyorlash va ularni agregatga ulashga tayyorlash.
		3. Agregat ishga tushirilishidan oldin barcha qurilmalar va quvurlarni tekshirish va sozlash.
		Ko'nikmalar:
		Zumpf agregatini transport holatidan ishchi holatga o'tkazish texnologiyasi bo'yicha amaliy ko'nikma.
		Quvurlar sxemasini tayyorlash va agregat bilan integratsiya qilish ko'nikmasi.
		Texnik nazorat va ishga tayyorlash jarayonida xavfsizlik qoidalarga rioya qilish ko'nikmasi.
		Bilimlar:
		Zumpf agregatining tuzilishi, ishlash prinsipi va texnik xususiyatlari.
		Quvurlar sxemalari va ularni agregatga to'g'ri ulash bo'yicha texnik me'yorlar.
		Mehnat muhofazasi, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari hamda ularni amalda qo'llash tartibi.

	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Zumpf agregatini transport holatidan ishchi holatga o'tkazish va quvurlar sxemasini tayyorlash jarayonining to'g'ri va xavfsiz bajarilishi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.
		2. Ishlarni bajarishda texnik me'yorlar, xavfsizlik qoidalari va mehnat muhofazasi talablariga rioya qilinishini ta'minlash uchun javobgar bo'ladi
		3. Yo'l ustasi yoki yuqori rahbariyatning ko'rsatmalariga muvofiq ishlarni mustaqil bajaradi, aniqlangan nosozliklar va muammolar haqida darhol xabar beradi va ularni bartaraf etish bo'yicha belgilangan choralarni amalga oshiradi.
B2.3-Tunnelda yig'ilgan loyqa pulpasini chiqarib olish va uni sisternalarga uzatish jarayonini boshqarish.	B2.01.3- Tunnel yig'uvchilaridan loyqa pulpasini chiqarib olish jarayonida uning sisternaga uzatilishini tartibga solish.	Mehnat harakatlari:
		1. Tunnel yig'uvchilaridan loyqa pulpasini chiqarib olish jarayonini nazorat qilish va uni uzatish vaqtida jarayonni boshqarish.
		2. Pulpani sisternalarga uzatish tizimining ishlashini kuzatish va kerak bo'lganda sozlash.
		3. Jarayon davomida yuzaga keladigan nosozliklarni aniqlash va darhol bartaraf etish choralari amalga oshirish.
		Ko'nikmalar:
		Loyqa pulpasini chiqarib olish va uni sisternalarga uzatish jarayonini boshqarish bo'yicha amaliy ko'nikma.
		Agregat va quvurlar tizimini nazorat qilish va sozlash ko'nikmasi.
		Favqulodda holatlarni aniqlash va tezkor choralar ko'rish hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish ko'nikmasi.
		Bilimlar:
		Zumpf agregati va quvurlar tizimining ishlash prinsipi va texnik xususiyatlari.
		Tunnel ishlarida loyqa pulpasini chiqarib olish va uzatish texnologiyasi.
		Mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi va yong'in xavfsizligi qoidalari, shuningdek tunnel ishlaridagi xavfsizlik talablarini bilish.
	B2.02.3-Ish tugagandan so'ng agregatni o'chirish, transport holatiga keltirish va barcha qurilmalarni harakatlanuvchi tarkib gabaritlari chegarasiga joylashtirish.	Mehnat harakatlari:
		1. Agregat ishlashini yakunlagach, uni xavfsiz tarzda o'chirish va transport holatiga keltirish.
		2. Harakatlanuvchi tarkib gabaritlari chegaralarini hisobga olgan holda barcha qurilmalarni joylashtirish va tayyorlash.
		3. Agregat va uskunalarni transport holatiga keltirish jarayonida nosozliklar va xavfli holatlarni aniqlash va bartaraf etish.
		Ko'nikmalar:
		Agregatni ishchi holatdan transport holatiga o'tkazish bo'yicha amaliy ko'nikma.
		Harakatlanuvchi tarkib gabaritlari chegaralarini hisobga olib qurilmalarni joylashtirish ko'nikmasi.

		Agregatni o'chirish va transport holatiga tayyorlash jarayonida xavfsizlik va texnika qoidalariga rioya qilish ko'nikmasi.
		Bilimlar:
		Zumpf agregatining transport va ishchi holatlari hamda ularni o'tkazish texnologiyasi.
		Harakatlanuvchi tarkib gabaritlari va ularni hisobga olgan holda uskunalarni joylashtirish qoidalar.
		Mehnat muhofazasi, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalar, shuningdek agregatni xavfsiz ishlatish bo'yicha amaliy bilimlar.
Mas'uliyat va mustaqillik:		1. Agregatni ishchi holatdan o'chirish va transport holatiga keltirish jarayonining to'g'ri va xavfsiz bajarilishi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.
		2. Harakatlanuvchi tarkib gabaritlari chegaralariga muvofiq barcha qurilmalarni joylashtirish va ularning ishlash qobiliyatini ta'minlash uchun javobgar bo'ladi.
		3. Yo'l ustasi ko'rsatmalari asosida ishlarni mustaqil bajaradi, aniqlangan nosozliklar yoki xavfli holatlar haqida darhol xabar beradi va ularni bartaraf etish bo'yicha belgilangan choralarni amalga oshiradi.
Texnik va/yoki texnologik talab		Agregatni ishchi holatdan transport holatiga o'tkazishda belgilangan texnik jarayonlar va me'yorlarga qat'iy amal qilish. Harakatlanuvchi tarkib gabaritlari chegaralarini hisobga olgan holda barcha qurilmalarni to'g'ri va xavfsiz joylashtirish. Agregat va qurilmalarni o'chirish, transport holatiga tayyorlash jarayonida mehnat muhofazasi, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish. Transport holatiga keltirilgan agregat ishlashga tayyor va xavfsiz holatda bo'lishi kerak. Jarayon davomida yuzaga kelgan texnik nosozliklarni aniqlash va belgilangan tartibda bartaraf etish.

Kasbning nomi:	Metropoliten qurilmalariga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha chilangar-elektrik	
Mashg'ulot nomining kodi:	74129	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	4	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	1 yil	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Maxsus ruxsatlar: Ishga 18 yoshga to'lganlar qabul qilinadi. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda majburiy dastlabki (ishga kirishda) va davriy tibbiy ko'rikdan (ko'rikdan), shuningdek, navbatdan tashqari tibbiy ko'rikdan (ko'rikdan) o'tish. Ishchi kasbi sertifikati Ishga munosabat va xulq-atvor: -rahbarlariga o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish; -o'z bilimi, tajribasi va vakolati doirasida qarorlar qabul qilish; -belgilangan vazifalarni ish vaqtidan unumli va oqilona foydalangan holda bajarish; -mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, atrof-muhitni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, yong'in va elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qilish; -o'z tajribasini hamkasblari bilan bo'lishish; -jamoa bilan inoq ishlash; o'z vazifalariga bog'liq yangilik va innovatsiyalarni kuzatib borish, o'zlashtirish va joriy qilish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	4-daraja uchun o'rta maxsus ta'lim, oliy ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	4-daraja uchun o'rta maxsus ta'lim, oliy ta'lim	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	Mavjud emas	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	2-6 razryad Metropoliten qurilmalariga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha chilangar-elektrik	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	4	Ta'mirlash bo'yicha chilangar elektrik

Mehnat funksiyalarining tasnifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
D1.4- Metropolitan elektromexanik uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash ishlarini bajarish.	D1.01.4- Qo'l, elektromexanik va elektro- gidravlik yuritmalarni bilan jihozlangan metropolitan uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash.	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Metropolitan elektromexanik uskunalarining texnik holatini tekshirish va diagnostika qilish.
		2. Nosozliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ta'mirlash ishlarini bajarish.
		3. Uskunalarni rejalashtirilgan texnik xizmat ko'rsatish va sozlash ishlarini amalga oshirish.
		Ko'nikmalar:
		Elektromexanik uskunalar bilan ishlash va ularni sozlash ko'nikmasi.
		Diagnostika asboblari yordamida nosozliklarni aniqlash ko'nikmasi.
		Texnik hujjatlar va sxemalar bilan ishlash ko'nikmasi.
		Bilimlar:
		Elektromexanik uskunalarining tuzilishi va ishlash prinsiplari.
		Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash texnologiyasi.
		Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalari.
	D1.02.4- Elektromexanik uskunalar tugunlarini qismlarga ajratish, ta'mirlash va qayta yig'ish ishlarini bajarish.	Mehnat harakatlari:
		1. Metropolitan elektromexanik uskunalarining texnik holatini tekshirish va profilaktik ko'rikdan o'tkazish.
		2. Aniqlangan nosozliklarni bartaraf etish va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish.
		3. Uskunalarni sozlash, sinovdan o'tkazish va ishga tayyor holatga keltirish.
		Ko'nikmalar:
		Elektromexanik uskunalarini diagnostika qilish va nosozliklarni aniqlash.
		Ta'mirlash jarayonida maxsus asbob-uskunalar va o'lchov asboblardan foydalanish.
		Texnik hujjatlar, chizmalar va sxemalar bilan ishlash.
		Bilimlar:
		Elektromexanik uskunalarining tuzilishi va ishlash prinsiplari.
		Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash texnologiyasi.
		Mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalari.
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Metropolitan elektromexanik uskunalarining uzluksiz va xavfsiz ishlashini ta'minlash uchun texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini sifatli bajarish.
		2. Uskunalarni qismlarga ajratish, ta'mirlash va qayta yig'ish jarayonida texnik talablar hamda xavfsizlik qoidalari rioya qilish.
		3. Aniqlangan nosozliklar haqida o'z vaqtida rahbariyatga xabar berish va ularni bartaraf etish choralarini ko'rish.

D2.4- Uskunalar, elektr qurilmalari va boshqaruv tizimlarining texnik holatini tekshirish hamda sinovdan o'tkazishda ishtirok etish.		4. Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash jarayonida aniqlangan oddiy nosozliklarni mustaqil ravishda bartaraf etish.
		5. O'ziga biriktirilgan uskunalarning texnik holatini nazorat qilish va rejalashtirilgan profilaktik ishlarni mustaqil tashkil etish.
	D2.01.4- Elektr ishga tushirish apparaturalari, kichik quvvatli elektr dvigatellari va ularning ayrim detallarini ta'mirlash hamda tekshirish.	Mehnat harakatlari:
		1. Elektr uskunolari va boshqaruv tizimlarining texnik holatini ko'rikdan o'tkazish.
		2. Elektr qurilmalari va avtomatika elementlarini sinovdan o'tkazishda qatnashish.
		3. Aniqlangan nosozliklarni qayd etish va ularni bartaraf etish bo'yicha choralar ko'rishda ishtirok etish.
		Ko'nikmalar:
		Elektr uskunolari va boshqaruv tizimlarini tekshirish ko'nikmasi.
		O'lchov va nazorat asboblari yordamida sinov ishlarini bajarish ko'nikmasi.
		Elektr sxemalari va texnik hujjatlar bilan ishlash ko'nikmasi.
		Bilimlar:
		Elektr qurilmalari va boshqaruv tizimlarining tuzilishi hamda ishlash prinsiplari.
		Elektr uskunalarini sinovdan o'tkazish usullari.
		Elektr xavfsizligi va mehnat muhofazasi qoidalari.
	D2.02.4- Izolyatsiya va yerga ulash qarshiligini o'lchash, kabellardagi shikastlanishlarni aniqlash va bartaraf etish.	Mehnat harakatlari:
		1. Elektr uskunolari va boshqaruv tizimlarining texnik holatini ko'rikdan o'tkazish va diagnostika qilish.
		2. Elektr qurilmalari hamda boshqaruv tizimlarini sinovdan o'tkazish jarayonida o'lchov ishlarini bajarish.
		3. Aniqlangan nosozliklarni qayd etish va ularni bartaraf etish bo'yicha ta'mirlash ishlarida ishtirok etish.
		Ko'nikmalar:
		Elektr uskunolari va boshqaruv tizimlarini tekshirish va diagnostika qilish ko'nikmasi.
		O'lchov va nazorat asboblari bilan foydalanish ko'nikmasi.
		Elektr sxemalari va texnik hujjatlar bilan ishlash ko'nikmasi.
	Mas'uliyat va mustaqillik:	Bilimlar:
		Elektr uskunolari va boshqaruv tizimlarining tuzilishi hamda ishlash prinsiplari.
		Elektr qurilmalarini sinovdan o'tkazish usullari va tartibi.
		Elektr xavfsizligi va mehnat muhofazasi qoidalari.
		1. Elektr uskunolari, boshqaruv tizimlari va kablarning texnik holatini tekshirish hamda sinovdan o'tkazish ishlarini belgilangan texnik talablar asosida sifatli bajarish.
		2. Izolyatsiya va yerga ulash qarshiligini o'lchash jarayonida o'lchovlarning aniqligi va xavfsizlik qoidalari rioya etilishi uchun javobgar bo'lish.

		3. Kabellarda aniqlangan nosozliklar va shikastlanishlarni o'z vaqtida bartaraf etish hamda ular haqida rahbariyatga axborot berish.
		4. Elektr uskunalari va kabellarning texnik holatini tekshirish jarayonida oddiy nosozliklarni mustaqil aniqlash va bartaraf etish.
		5. O'lchov va sinov ishlarini bajarishda zarur asbob-uskunalarni tanlash va ulardan foydalanishda mustaqil qaror qabul qilish.
		6. O'ziga biriktirilgan elektr qurilmalari va kabellarning texnik holatini nazorat qilish hamda profilaktik tekshiruvlarni mustaqil amalga oshirish.
		O'qitish natijalari
D3.4- Elektr ta'minoti, kabellar va yordamchi qurilmalarining ishlashini nazorat qilish hamda yuzaga kelgan nosozliklarni bartaraf etish.	D3.01.4- Nasoslar, ventilyatorlar va boshqa yordamchi uskunalar xizmat ko'rsatish hamda ularni sinovdan o'tkazishda ishtirok etish.	Mehnat harakatlari:
		1. Elektr ta'minoti tizimi, kabellar va yordamchi qurilmalarning ishlash holatini muntazam tekshirish.
		2. Aniqlangan nosozliklar sababini aniqlash va ularni bartaraf etish choralari ko'rish.
		3. Elektr jihozlari va kabel tarmoqlarida profilaktik texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarish.
		Ko'nikmalar:
		Elektr ta'minoti tizimlaridagi nosozliklarni aniqlash va diagnostika qilish.
		Elektr kabellari va yordamchi qurilmalarni xavfsiz ishlatish hamda ta'mirlash.
		O'lchov asboblari yordamida elektr parametrlarini tekshirish.
		Bilimlar:
		Elektr ta'minoti tizimlari va kabel tarmoqlarining ishlash prinsipi.
		Elektr qurilmalaridan foydalanish va texnika xavfsizligi qoidalari.
		Elektr jihozlarida uchraydigan asosiy nosozliklar va ularni bartaraf etish usullari.
	D3.02.4- Quvvat manbalari bloklarini tekshirish, montaj belgilarining va prinsipial elektr sxemalarning mosligini nazorat qilish hamda aniqlangan nosozliklarni bartaraf etish.	Mehnat harakatlari:
		1. Elektr ta'minoti tizimi, kabellar va quvvat manbalari bloklarining texnik holatini tekshirish va ularning ishlashini nazorat qilish.
		2. Montaj belgilarining hamda prinsipial elektr sxemalarning amaldagi ulanishlarga mosligini tekshirish.
		3. Aniqlangan nosozliklarni diagnostika qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha ta'mirlash ishlarini bajarish.
		Ko'nikmalar:
		Elektr jihozlari, kabellar va quvvat manbalaridagi nosozliklarni aniqlash va diagnostika qilish.
		Elektr sxemalarini o'qish va montaj ishlari to'g'riligini tekshirish.
		Elektr o'lchov asboblari yordamida kuchlanish, tok va boshqa parametrlarni o'lchash.
		Bilimlar:

		Elektr ta'minoti tizimlari, quvvat manbalari bloklari va kabel tarmoqlarining tuzilishi hamda ishlash prinsipi.
		Prinsipial elektr sxemalar, montaj belgilarini o'qish va ulardan foydalanish qoidalari.
		Elektr jihozlarini ishlatishda texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasi talablari.
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Elektr ta'minoti tizimlari, kabellar va quvvat manbalari bloklarining uzluksiz va xavfsiz ishlashini ta'minlash uchun javobgar bo'lish.
		2. Montaj belgilarining va prinsipial elektr sxemalarning to'g'ri qo'llanilishi hamda elektr qurilmalarining texnik talablar asosida ishlashini nazorat qilish.
		3. Aniqlangan nosozliklarni o'z vaqtida bartaraf etish, texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasi qoidalariga rioya qilish uchun javobgarlik.
		4. Elektr ta'minoti tizimlari va quvvat manbalarining ishlash holatini mustaqil ravishda tekshirish va baholash.
		5. Oddiy nosozliklarni mustaqil aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha zarur choralarni ko'rish.
		6. Murakkab nosozliklar yuzaga kelganda rahbar yoki mutaxassis ko'rsatmalari asosida ishlarni bajarish.
	Texnik va/yoki texnologik talab	Elektr ta'minoti tizimlari, kabellar va quvvat manbalari bloklarini o'rnatish, tekshirish va ishlatish amaldagi texnik me'yorlar hamda standartlarga muvofiq bajarilishi kerak.
		Montaj ishlari prinsipial elektr sxemalar, montaj belgilar va texnik hujjatlar asosida to'g'ri amalga oshirilishi lozim.
		Elektr jihozlarini tekshirish va nosozliklarni bartaraf etishda maxsus o'lchov asboblari, diagnostika vositalari hamda texnika xavfsizligi talablariga qat'iy rioya qilinishi kerak.

V. Kasbiy standartning texnik ma'lumotlari

5.1. Kasbiy standartning rekvizitlari

1.	Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining tasdiqlash hujjatlari:	Transport sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining 7-iyul 2026 yildagi 8-sonli bayoni
2.	Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutining xulosasi:	KS-0152-sonli xulosa, 02.06.2026
3.	Kasbiy standart talqini va ishlab chiqilgan sanasi:	1.0-talqin, 27.05.2026.
4.	Taxminiy qayta ko'rib chiqish sanasi:	26.05.2031.

5.2. Kasbiy standartni ishlab chiqishga mas'ul tashkilot

"Toshkent metropoliteni" DUK

(tashkilot nomi)

Usmanov Raxmonbek Jaxangirovich

(rahbarning lavozimi, imzosi va F.I.O.)

5.3. Kasbiy standartni ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxona)lar to'g'risida ma'lumot

T/r	Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1	Metropoliten kadrlarini tayyorlash ilmiy innovatsion markazi direktori	Toshpo'latov Akrom Mamanosirovich
2	"O'quv metodik" bo'lim boshlig'i	Xalikov Rustam Islamovich
3	"Ta'lim muassasalari bilan ishlash xizmati" bosh mutaxassisi	Yo'ldashev Dilshod Ilhom o'g'li
4	"Elektromexanika" xizmati Iqtisodiy rivojlantirish va mehnatni tashkil qilish bo'limi yetakchi mutaxassisi	Nabiyeva Munajat Abduazizovna
5	"Iqtisod, moliya va mehnatni tashkil qilish" xizmati boshlig'i o'rinbosari	Xamrayev Djamshid Panjiyevich
6	"Kadrlar bilan ishlash" xizmati boshlig'i o'rinbosari	Xodjayev Eldor Baxtiyarovich
7	"Kadrlar bilan ishlash" xizmati kadrlarni tayyorlash bo'yicha bosh mutaxassis - ish yurituvchi	Botirov Mirismoil Tohir o'g'li
8	"Elektromexanika" xizmati ta'mirlash uchastkasi zumpf agregati chilangari	Abdumalikov Bahodir Sirojiddinovich
9	"Tonnel inshootlari xizmati yetakchi mutaxassisi	Abduraxmonova Mushtariy Rashid qizi



**TRANSPORT VA AVTOMOBILSOZLIK SOHALARIDA KASBIY
MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA TARMOQ
KENGASHI**

KASBIY STANDART

**METROPOLITEN QURILMALARIGA XIZMAT
KO'RSATUVCHILAR VA TA'MIRLOVCHILAR**